



MAKTABDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGANISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Rustamova Lobarxon Ibragimovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman Maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, ADPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini pedagogik texnologiyalar asosida o'rganishning o'ziga xos bo'lgan uch ilmiy-metodik asoslariga e'tibor qaratilgan. "Pedagogik texnologiya" so'ziga izoh berilgan. Ta'lim texnologiyasi didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi ekanligi batafsil keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, liro-epik, pedagogik ta'lim, kichik va xususiy pedagogik texnologiyalar, didaktik tizim, yaxlitlik, tizimlilik.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin vakili, o'zidan keyingi butun ijod ahlining piri komilidir. Buyuk adib asarlarini tushunish va tushuntirish yo'l-yo'riqlarini to'g'ri yo'lga sola bilsak, unga zamondosh va undan keyingi shoirlar ijodini o'rganish va o'rgatish uchun kalitga ega bo'lamiz desak, xato bo'lmaydi. Quyidagi ilmiy va ilmiy-metodik asoslarga tayanishimiz kerak bo'ladi:

a) ilmda Navoiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati tadqiq etilgan ilmiy asarlar, adib biografiyasiga bag'ishlangan izlanishlar;

b) adabiyotshunoslikda adib ijodiy merosi tadqiq etilgan, turli yo'nalishda o'rganilgan tadqiqotlar;

c) adabiyot o'qitish metodikasi ilmida mumtoz adabiyotni, ulug' shoir hayoti va ijodini o'rganishga aloqador ilmiy-metodik ishlar.

Birinchi guruh manbalari, qilingan ishlarga Sh.Sirojiddinovning ishlarini kiritiladi. Unda ta'limning barcha bosqichlarida adib hayot yo'lini o'rganishga oid yetarli ma'lumotlar bayon qilingan.

Ikkinchi guruhga olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar kiradi. Ularning salmog'i, adadi ancha katta bo'lib, adabiy ta'limni ilmiy asosda yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

Uchinchi guruhga kiritish mumkin bo'lgan tadqiqotlarni Pedagogika fanlari doktori Valijon Qodirov, pedagogika fanlari nomzodi Maqsuda Sariboyeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori D.To'xliyevlarning ishlari bu boradagi asosiy tadqiqotlardir.

Adib hayoti va ijodini pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq o'rganish bo'lgani uchun quyidagi uch aspektga diqqat qaratib, mohiyatni oydinlashtirib olishimiz kerak bo'ladi:

a) "texnologiya" hamda "pedagogik texnologiya" tushunchalarining mohiyati, ilmda ularga berilgan tavsif;



b) ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan yondashuv hamda uning xususiyatlari;

c) Alisher Navoiy hayoti va ijodini pedagogik texnologiyalar asosida o'rganishning o'ziga xosligi.

Shu uch masala borasida fikr yuritamiz.

Avvalo, "texnologiya" atamasiga diqqat qaratamiz. Atama juda ko'p adabiyot va manbalarda tavsiflangan. Masalan, Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyevalarning "Ta'lim texnologiyalari" nomli darsligida shunday izohlanadi: "Texnologiya so'zi (yunon. "texno" – san'at, mahorat, malaka, "logos" – fan, ta'limot, tushuncha, fikr, ma'no) ishlab chiqarishda yangi sifat va miqdor o'zgarishlariga olib keluvchi samarali usullar yig'indisi, tizim ma'nosida qo'llaniladi". Boshqa manbalarda ham aynan mazkur ma'noda yoki shunga yaqin mazmundagi ta'riflarga duch kelamiz. Tushuncha oldin sanoatda, qishloq xo'jaligida, umuman, ishlab chiqarishda qo'llanib, joriy qilingan bo'lsa, keyinchalik ta'lim tizimiga tatbiq qilingan. Shundan "pedagogik texnologiya", "ta'lim texnologiyalari" atama va tushunchalari yuzaga keldi. J.Yo'ldoshev, S.Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari" nomli xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanmasida pedagogik texnologiyaning eng mashhur ta'riflari keltirilgan. Ulardan o'zimizga eng maqbul bo'lgan bir nechtasini keltiramiz:

"Pedagogik texnologiya — o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat. {B.T. Lixachev.)

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. Bospalko.)

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (A. Choshanov.) Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli. (V. M. Monaxov.)

Ular ichida YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif ham o'ziga xosdir: "Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi".

Ta'riflardan texnologiyada ta'lim komponentlarining yig'indisi, jarayon loyihasi, tizim (sistema)ga solish kabilar barchasi uchun umumiy, uyg'un ekani ko'rinadi. Bu shunday jarayonki, undagi rejalashtirilgan tizimda nimani qachon qanday qilinishi belgilangan bo'ladi. "Pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda maktab o'qituvchisi o'quvchilarda kompetentsiyani shakllantirishda ikki holatga e'tibor berishi shart:

1. Maktab o'quvchisida o'z kuchi va imkoniyatiga ishonish hissini uyg'ota olish.

2. Maktab o'quvchisiga o'z vaqtida zaruriy yordamni bera olish".



Pedagogik texnologiyaga tayangan ta'lim o'qitish kechimidagi bir qator masalalarini hal etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu masalalar sirasida ta'lim mazmunini muayyan sistema (tizim)ga keltirish, o'quv dasturlarni optimallashtirish, ta'lim oluvchilarga individual yondashish, olingan bilimlarni amaliy qo'llash hamda o'z va o'zgalarning faoliyatini baholash, nazorat qilib borish; mashg'ulotga qiziqishni orttirish hamda faollashtirish, mustaqillik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya hozirgi kunda alohida fan darajasida shakllandi, nafaqat xorijda, ayni paytda yurtimizda ham olimlar, amaliyotchi pedagoglar tomonidan qo'llanma, darslik, monografiyalar yaratildi. O'zbekistonda nashr qilingan kitoblarda ichida J.Yo'ldoshev, S.Umarovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari" qo'llanmasi ushbu sohaga oid aksariyat mavzu, ma'lumot va tushunchalarni batafsilroq qamrab olingani bilan e'tiborga molik. Qo'llanmada pedagogik texnologiya tushunchasi, ta'riflari, ko'rinishlari, darajalari, asosiy yo'nalishlari, tarixiy rivojlanish darajalari, manbalari, tasnifi, mezonlari, mazkur ta'limiy voqelikning metodika bilan farqlari, tarkibiy qismlari va yana boshqa ko'plab jihatlari tavsiflab berilgan.

Pedagogik texnologiyani ta'limga, adabiyot o'qitish, xususan, mumtoz adabiyotga tatbiq qilish uning uch darajasining biri bo'lmish xususiy texnologiya qamroviga tegishlidir. Chunki "Xususiy texnologiya ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuyini o'z ichiga oluvchi pedagogik tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari, rahbarning, o'qituvchining, tarbiyachining va o'quvchining ishlash" i bilan bog'liq masalalar kiradi. Agar mumtoz adiblarning biografiyasi, asarlari yoki ulardan namunalar va yohud parchalarning o'rganilishi maqsad qilib qo'yilsa, o'qitish obyektining alohida bo'limini o'z ichiga olgan, muayyan didaktik masalalar yechimi bilan shug'ullanadigan, mashg'ulotlar algoritmini ifoda etadigan, yangi tushuncha singdirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish, mumtoz adabiyot bilan bog'liq ko'nikma, malakalar, qaror toptiriladigan shaxlik sifatlarini tarbiyalash, o'rganganlarini takrorlash, bularning barchasini nazorat qilishni nazarda tutilsa, kichik texnologiya sanaladi. Modul ko'rinishdagi mazvular majmuyi yoki alohida olingan asarlarni o'rganish ushbu pedagogik texnologiya darajasida hal qilinadi. Kichik va xususiy pedagogik texnologiyalar ayni paytda qoliplovchi yaxlitlik, tizimlilik kasb etadigan (va ushbu qo'llanmada zikr qilingan) umumpedagogik texnologiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodini umumta'lim maktablarida o'rganilganda qo'llanadigan kichik texnologiyalar quyidagi o'ziga xos yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:

- 1) buyuk adib hayoti yo'lini (biografiyasini) o'zlashtirishga oid pedagogik texnologiyalar;
- 2) ijodini umumiy tavsiflashga qaratilgan pedagogik texnologiyalar;
- 3) shoirning lirik asarlarini tahlil qilishni ko'zlagan pedagogik texnologiyalar;
- 4) adib nasri namunalarini o'rganishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar;



5) Navoiy liro-epik asarlarini o'rganish, talqin va tahlilini maqsad qilib olgan pedagogik texnologiyalar;

6) nazariy ma'lumotlarni o'rganishga qaratilgan texnologiyalar.

Metodik adabiyotlarda muallif "tarjimayi holi ikki sababga binoan o'rganilishi: birinchidan, tarjimayi hol o'rganiladigan badiiy asarni tushunishga kalit bo'lishi, ikkinchidan, millatning eng yetuk farzandlaridan hisoblanmish adiblar hayotidagi namuna bo'lgulik jihatlar orqali o'quvchilar ma'naviyatida muayyan sifatlar shakllantirilishi mumkinligi" qayd etilgan. Adabiy ta'limda o'quv dasturiga kiritilgan adiblar hayot yo'li (biografik ma'lumotlar)ni o'rganishda ikkita yondashuv kuzatiladi. Birinchisi, sho'ro davridan boshlab o'n yillaklar davomida rioya qilingan, bugungi kunda ham amaliyotda kuzatilgan holat, ya'ni biografik ma'lumotlarlar alohida bitta mashg'ulotida – bir soatlik dars mobaynida o'rganiladi. Ikkinchisi, birinchi yondashuvga qarama-qarshi o'laroq mazkur ma'lumotlarni alohida bir soatda o'rganishni maqbul deb bilmaydi. Ushbu yondashuvni ilgari surgan metodist olim V.Qodirovning fikricha, adabiyot o'qitishdan asosiy maqsad badiiy matn ustida ishlash, uning san'at asari ekanini o'quvchiga tuydirish, undan ibrat olishdir, bir soatni o'quvchining o'zi mustaqil o'qib, o'rganib olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar uchun sarflash, vaqtni zoye qilishdir. Olim tomonidan yozilgan qo'llanmada bu boradagi fikrlari keskin qo'yilgan.

5-7-sinflarda biografik ma'lumotlarga o'rtacha 6-8 daqiqa, 8-9-sinflarda undan bir oz ko'proq vaqt ajratilsa kifoya qiladi. Shunda ham adib ijodini o'rganishga asqotadigan eng muhim dalillar, darslikka qo'shimcha muallif shaxsiyatining yorqin qirralarini namoyon etuvchi ma'lumotlar qisqa, lo'nda, ayni paytda, ta'sirchan ifodalarda bayon etilishi lozim.

Haqiqatan ham ham dasturda o'rganilishi ikki soat belgilangan o'quv materialining bir soatini tarjimayi holga berilishi, faqat ikkinchi soatga ikki-uch she'rni yoki kattagina nasriy parchani qoldirish "vaqtni zoye qilish"dir.

Buyuk adib hayoti yo'lini (biografiyasini) o'zlashtirishga oid pedagogik texnologiyalar quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi kerak:

- Alisherning oilaviy muhiti: ota-onasi, tog'alari, oilaviy tarbiyasi;
- Alisherning bolaligi, maktab tahsili;
- Alisher – talaba: Samarqand madrasasida tahsil;
- Alisherbek va Husayn Mirzo do'stligi: ijtimoiy-siyosiy faoliyati;
- Navoiyning din va tasavvufga munosabati;
- Navoiyning shaxsiy hayoti va ijodidagi mushtaraklik;
- Navoiyning turk dunyosi tarixida tutgan o'rni.

Mazkur bosqichlarni olgan kichik pedagogik texnologiya bosqichlari markazida shunday maqsad turadi: o'quvchilar avvalo buyuk adib shaxsini tanishlari va bu tanishish uning asarlarini teranroq tushunishga xizmat qilmog'i kerak. Shuningdek, uning shaxsi, hayotidan olingan lavhalar millat bolalari uchun ulkan ibrat maktabidir. Demak, bu yo'nalishdagi kichik pedagogik texnologiyalar a) biografik faktlarni xronologik ketma-ketlikda yetkazish; b) adib shaxsini ta'limiy maqsad imkoniyatlariga ko'ra tanishtirish; c) undan olinadigan ibratlarni o'quvchilar shaxslik sifatlariga singdirish; d) ulug' adib asarlarini tushunish uchun zamin hozirlash kabilarni nazarda tutadi.



O'quvchilarni faollashtirish uchun pedagogik texnologiyani qo'llash asnosida muammoli ta'lim unsurlarini kiritishdir. Qunduzxon Husanboyeva shunday deydi: "Muammoli ta'limning asosiy xususiyati shundaki, unda o'quvchi oldiga bilim berishga yo'naltiradigan masalalami qo'yishda ham, uning ma'naviyatini shakllantirish yo'lida ham muammoli savollar muhim o'rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyat hosil qilishning asosiy sharti sanaladi. Bilim berishga qaratilgan savol o'quvchi uchun ma'lum qiyinchilik tug'diradigan darajada bo'lishi, avval egallagan bilimlariga mos kelishi, shu bilan birga, uning imkoniyatlari doirasida bo'lishi lozim. Ya'ni muammoli vaziyatlar bolaning hayotiy tajribasi va nazariy bilimini hisobga olgan holda yaratilishi kerak"ligiga alohida urg'u beradi".

Ko'rinib turibdiki, mumtoz badiiy tafakkur tarzi yetti komponentdan iborat yaxlit estetik hodisasidir. Navoiy lirikasini o'rganishda, pedagogik texnologiyalarni loyihalashda o'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, o'qiyotgan maktabining toifasi (oddiy umumta'lim maktabi, ixtisoslashtirilgan yoki ijod maktabi kabi) kabi jihatlar e'tiborga olinishi lozim. Masalan, barcha toifadagi maktablarning o'rta (5-7-) sinflarida, oddiy umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida ham aruz vazni, mumtoz qofiya ilmi alohida dars sifatida o'qitilmaydi. Shuning uchun shoir she'riyati bo'yicha qaysi bir texnologiyani loyihalash bo'lsin, uning tarkibiga bu poetik unsurlarni kiritish to'g'ri bo'lmaydi. Lekin boshqa toifadagi maktablarning o'quv dasturi, iqtidorli o'quvchilar qobiliyatiga ko'ra o'rta sinflardan keyin vazn hamda qofiyani kiritish mumkin bo'ladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, mumtoz badiiy tafakkur tarziga kiruvchi komponentlarning har birini bir yoki ikki darsda alohida texnologiya sifatida shakllantirib o'rganish mumkin. Agar ularning barchasini qamrovga olish niyat qilinsa, bir texnologiya bir nechta dars mashg'ulotiga mo'ljallanib tuzilishi mumkin. Albatta, hozirgacha respublikamizda bunday texnologiya yaratilmaganini hisobga olsak, bunga jur'at qilib urgan adabiyot muallimi yoki metodistdan katta bilim, mahorat, ijodkorlik talab qiladi.

Nasr namunalarini o'rganishda, u bo'yicha texnologiyani shakllantirishda sharhlab o'qish yaxshi samara berishi metodistlar tomonidan qayd etiladi. Bu borada tadqiqotchi Nurzod Norqulovning maqolasi siqqatimizni o'ziga tortdi. U o'zining "Umumiy o'rta ta'limda mumtoz nasr namunalarini o'qitishdagi pedagogik muammolar" nomli maqolasida uch xil sharh turini keltiradi.

Birinchisi, lingvistik sharh bo'lib, unga darsliklardagi mumtoz matnlarda uchraydigan o'quvchilar uchun notanish, arab, fors tilidan o'zlashgan, shuningdek, asli turkey qatlamga xos bo'lsa-da, eskirgan, yani tarixiy so'zlar va arxaizmlar qatoridan joy olgan leksik birliklar sharh qilinadi. Buning uchun adabiyot o'qituvchisidan til tarixiga oid bilimlar talab qilinadi.

Ikkinchisi esa tarixiy-milliy sharh hisoblanadi. Unga ko'ra matndagi millatimiz yoki boshqa xalqlarga mansub urf-odatlar, muayyan tarixiy voqealar, davom etib kelayotgan yoki o'sha davrga xos bo'lga an'ana va udumlar sharhlanadi. Mazkur sharh bevosita tarix, etnografiyaga aloqador ma'lumotlarni bilishni taqozo etadi.

Oxirgi – uchunchisi tarixiy-adabiy sharh deyilgan va unda badiiy asar voqeligi tarixiylik tamoyiliga ko'ra izohlanadi. Masalan, hikoyat tarzida berilgan rivoyatlarda asosan tarixiy shaxslar bosh obraz qilib berilgan. Ayni paytda ular hayotda qanday





bo'lsa, yuz foiz shunday berilmaydi, balki adiblar tomonidan badiiy qayta ishlanib, prototip o'laroq tasvirlanadi. Pedagogik texnologiyalarni tartiblaganda ana shu tarixiy voqelik bilan badiiy voqelik uyg'un holda sharhlanishiga yo'naltiriladi.

Mumtoz liro-epik asarlarni texnologiyalashtirishga moyillik metodist olim Valijon Qodirovning yuqorida eslatilgan dissertatsiyasida kuzatamiz. U o'z ishida o'quv dasturida mumtoz dostonlarga ajratilgan vaqt hajmidan kelib chiqib, har bir soat uchun qilinishi kerak bo'lgan didaktik ishlarni ketma-ketlikda bergan. Masalan, oldingi amalda bo'lgan dastur bo'yicha 5-sinfda o'qitiladigan "Qutadg'u bilig" dostoni uchun quyidagicha metodik ko'rsatmalarni tavsiya etadi: 1) muallif Yusuf Xos Hojib to'g'risida ma'lumot berish; 2) dostonning nomlanishi hamda ma'nosi (hozirgi tilimizda "Saodatga eltuvchi bilim" deb yuritiladi); 3) asardagi asosiy to'rt bosh obraz, ularning ismi, ismlarining ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunini sharhlash (Kuntug'di elig, ma'nosi ko'tarilgan quyosh – adolat ramzi, hukmdor mavqeyida; Oyto'ldi – ma'nosi to'lin oy, davlat ramzi, vazir lavozimida; vazirning o'g'li O'gdulmish – aql ramzi; uning qarindoshi O'zg'urmish – qanoat ramzi); 4) dostonning syujeti mazkur to'rt obraz orasida bo'lib o'tgan munozara yoki suhbat, savol-javoblardan tashkil topishi; 5) syujetning qisqacha tafsiloti; 6) mashg'ulot oxirida berilgan parchalar ma'nosi, mazmuni-mohiyati, ilgari surilgan g'oya, o'ziga xos badiiyati, o'rganish asnosida tug'ilgan taassurotlar bo'yicha suhbat.

Shuningdek, bu borada o'qituvchining mavzu yuzasidan darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishtirishi o'quvchilar dunyoqarashi, tasavvuri kengashiga yodam beradi. Masalan, aruz darslari texnologiya asosida o'rganilayotganda Anvar Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish", "O'zbek aruzi lug'ati", "Maktabda o'rganiladigan mumtoz she'riyatning vazn ko'rsatkichlari" qo'llanmalari, shuningdek, A.Qurbonovning risola va maqolalari, D. Yusupovning "Ilmi aruz", D. Zohidovning "Aruz saboqlari" kitoblarini o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axatova D. Pedagogik faoliyatda hamkorlik pedagogikasining o'rni va ahamiyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference, November 13, 2023. 101-102-b.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovasion ta'lim texnologiyalari – T: 2015.(208)
3. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. Т.:Ўқитувчи, 2004.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovasion ta'lim texnologiyalari. 51-b.